INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.4 №5 (2026). MAY
innovativepublication.uz

ABDURAHMON SA’DIYNING “AMALIY HAM NAZARIY ADABIYOT DARSLARI”DA TUR VA JANRLAR NAZARIYASI TALQINI

Amonova Mohinur Ikromjon qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligida tur va janrlar nazariyasining talqin etilishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Olimning lirik, epik va dramatik tur hamda doston, g‘ariba, ertak, masal, hikoya, qissa, roman kabi janrlar haqidagi nazariy qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyoti kontekstida yoritiladi. A.Sa’diyning janrlarni badiiy asarlar misolida asoslash usuli ochib beriladi. Olim tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarining keyingi o‘zbek adabiyotshunosligi rivojidagi ta’siri baholanadi.
Kalit so‘zlar: Abdurahmon Sa’diy, “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari”, adabiyot nazariyasi, adabiy tur, adabiy janr, hikoya, roman, adabiy tanqid.

Bilamizki, badiiy asarlar an’anaviy ravishda lirik, epik va dramatik kabi turlarga ajratib kelinadi. Badiiy asarlarni turlarga ajratish an’anasini qadimgi yunon olimi Aristotel boshlab bergan. U o‘zining “Poetika” asarida bu haqida aytib o‘tgan va bu tasnif hozirgacha amalda qo‘llanmoqda. Keyinchalik, jahon adabiyoti nazariyasida “adabiy turlar uchtadir” degan qarash Gegel, K.Byuxer, Belinskiy va Veselovskiy hamda boshqa nazariyotchi olimlar tomonidan dalillangan. Har bir san’at turida janrlar tizimi o‘ziga xos tarzda shakllanadi va rivojlanadi. Natijada, poetika ilmida adabiy tur va janrlar muhim birliklar sifatida maydonga keladi.

O‘zbek adabiyotida XX asr boshlari har jihatdan adabiy ta’sirni boshdan kechirdi: badiiy adabiyot, adabiy tur va janrlar, ularning poetik xususiyatlari yangilandi, shu asosdan adabiyot nazariyasida ularning nazariy qoidalarini ishlab chiqish zarurati tug‘ildi. Mumtoz an’analar: aruz, badiiyat, qofiyaga oid poetik tahlil barmoq, oq she’r, sochma, Mansura kabi yangi vaznlar imkoniyatiga qarab o‘zgara bordi. An’anaviy mavzular, obrazlar va ularga yuklangan vazifalar ham Keskin o‘zgardi. Adabiyot har davrda ijtimoiy hodisa sanalib kelgan[1].

XX asrning 20-yillarida o‘zbek adabiyotshunosligi ilmida janrlar masalasini nazariy jihatdan o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Bu jarayonda Abdurauf Fitrat, Zarif Bashir, Olim Sharafiddinov, Sotti Husayn singari olimlar qatorida Abdurahmon Sa’diy

[1] Hamroyeva O. Adabiyotshunoslik tarixi (O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi). – Toshkent: bookmany print, 2026. – 368 b.

ham janr tabiati va uning badiiy xususiyatlariga doir muhim ilmiy qarashlarni ilgari surdi. Olimning 1924-yilda o‘zbek bilim yurtlari uchun yaratilgan “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligida mazkur muammoning ham amaliy, ham nazariy jihatlari izchil yoritildi.

Qadimgi Sharq adabiyotida ham janrlarning belgi va xususiyatlarida antik davr janrlariga xos ayrim jihatlarning muayyan darajada aks etishi kuzatiladi. Adabiyot epos, lirika, drama kabi uch turga bo‘linadi. Biroq o‘zbek adabiyoti nazariyasini birinchilardan bo‘lib tizimlashtirgan adabiyotshunos olim Abdurahmon Sa’diy o‘zining “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” kitobining “She’riy ijodlarni turlarga ajratish” deb nomlangan bobida an’anaviy tasnifni buzgan holda ijodni ikki asosiy turga ajratadi: birinchisi – yurakchilik ijodi; ikkinchisi esa ravishli yoki suratli ijoddir. O‘z navbatida, ravishli ijod yana ikkiga bo‘linadi: ko‘chirik (epik) va tomoshaliq (dramatik). Muallifning bu tasnifi adabiyotshunoslikda keng e’tirof etilgan uchlik – epos, lirika va drama tizimidan farq qilib, u ijodiy hodisani boshqa mezon asosida izohlashga intiladi. A.Sa’diy badiiy ijod turlarini ajratishda o‘ziga xos yondashuvni ilgari surib, ularni ruhiy holat va ifoda uslubiga bog‘liq holda talqin qiladi. Olimning fikricha, rivoyaviy asarlar tashqi voqelikni tasvirlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, lirik asarlar insonning ichki kechinmalari va ruhiy olamini aks ettiradi. Har ikkala tur shakl va uslub jihatidan emas, balki mohiyatiga ko‘ra farqlanadi. Muallif shuni ham ta’kidlaydiki, epik yoki dramatik asarlarda ifodalangan mazmun lirik shaklga ko‘chirilganda tubdan o‘zgaradi, ya’ni uning badiiy tabiati yangicha tus oladi. Aksincha, epik voqea dramatik shaklga o‘tkazilganda, tashqi ifoda o‘zgarishiga qaramay, mazmuniy asos deyarli saqlanib qoladi. Bu holat A.Sa’diy tomonidan janrlararo farqlarning mohiyatini aniqlashda muhim mezon sifatida ko‘riladi. Ayni shu davrda yaratilgan Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida adabiy turlar uchga ajratiladi:

1. Yurakchilik – lirika
2. Rivoya – epos
3. Tomosha[2]

Olim adabiy turlarni ularning xususiyatidan kelib chiqib nomlaydi.

A.Sa’diyning she’rshunoslikka oid qarashlari yuzasidan Sh.Muhammadiyeva o‘z tadqiqotlarida ayrim mulohazalarni bildiradi. Xususan, u muallifning “ohang”ni ritm sifatida talqin qilishi, “misra” o‘rnida “yo‘l” terminini qo‘llashi hamda qofiyani

[2] Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4ғжилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев) – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 78

“bitim” deb atashi kabi jihatlarni qayd etadi. Biroq bunday xulosalarni mutlaq to‘g‘ri deb baholash qiyin, chunki bu holat ko‘proq rus adabiyotshunosligi ta’sirida shakllangan terminologik moslashuv natijasi sifatida talqin qilinadi.

Olim yurakchilik ijodini quyidagi sakkiz turga ajratadi: diniy yurakchilik, harbiy – vataniy yurakchilik asarlari, inqilobiy she’rlar, qasida, sevgi yurakchiligi, qayg‘u va motam she’rlari, kulgilik – hajviy yurak she’rlari, mutolaalik yoki fikrlik yurak she’rlari. Muallif yurak she’rlarining har bir turi haqida nazariy ma’lumotlar berib, misol sifatida ham G‘arb, ham Sharq adabiyoti vakillariga murojaat qiladi. Masalan, diniy yurakchilik she’rlari “mavhum bir narsa bo‘lg‘an uluhiyatka qaratilg‘an munojot, ilohiyatdan iborat”[3] bo‘lib, bunga hindlarning muqaddas kitoblari hisoblangan “Veda”lari va “Zabur” oyatlari misol bo‘ladi. Usmonli shoirlardan Shinosiy, Ziyo Posho va Ziyo Tavfiq ijodida uchrasa, Turkiston shoirlaridan Yassaviy, Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyor, Mashrab, Avloniy; ruslardan Pushkin va Lermontov ijodida borligi aytiladi.

Abdurahmon Sa’diy ko‘chirik ijod turlariga xalq qahramon ashulalari, doston, g‘ariba (ballada), ertak, masal, hikoya, qissa, roman kabi janrlarni kiritadi. Jumladan, hikoya janrini tavsiflash jarayonida u nazariy qarashlarini konkret badiiy namunalar orqali asoslashga intiladi. Shu maqsadda Abdulla Qodiriyning “Uloqda”, “Otam va Bolshevik”, Cho‘lponning “Oydin kechalarda”, Yo‘l esdaligi” hamda Fitratning “Qiyomat” asarlarini tahlil doirasiga tortadi. Olimning fikricha, mazkur hikoyalar janrining yetakchi xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan namunalar hisoblanadi.

Olim talqinida qissa “povest” hajmiga yetmagan uzun hikoya sifatida izohlanadi va u Elbekning “Qo‘shchi Turg‘un” asarini shu janr tarkibiga kiritadi. Fitrat ham ushbu asarni “uzun hikoya” deb baholagan edi. Biroq “uzun hikoya” atamasi janr mohiyatini to‘liq ifodalay olmagani sababli ilmiy muomalada barqarorlashmadi. Keyinchalik “Roman nima va u qanday bo‘lishi kerak? degan masala matbuotda keng muhokama etilganda, A.Sa’diy roman janrining asosiy xususiyatlarini o‘z davri nuqtayi nazaridan ancha aniq va izchil tarzda tavsiflaydi. U, avvalo, romanning hajm va ko‘lam jihatiga e’tibor qaratadi. Olim roman janrini uzoq davom etuvchi voqealarni qamrab oluvchi, ko‘p planli syujet asosiga qurilgan yirik epik asar sifatida baholaydi. Shuningdek, unda “chin turmush”, ya’ni realistik hayot tasviri ustuvor bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. A.Sa’diy romanlarni mavzu va mazmun xususiyatiga ko‘ra realistik, fantastik, psixologik hamda tarixiy turlarga ajratadi. Mazkur tasnif keyingi davr o‘zbek

[3] Abdurahmon Sa’diy. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. (Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva) – Toshkent: Bookmany print, 2025. 124-b.

adabiyotshunosligi tomonidan boyitilib, rivojlantirildi.

Tomoshaliqlar olim tomonidan tasvir etilgan voqeaning, ulardagi shaxslarning tabiatlariga qarab uch turga ajratiladi:

1. Fojea – tragediya
2. Kulgilik – komediya
3. Odatiy tomoshaliq yoki tor ma’nosi bilan drama[4].

A.Sa’diy fikricha, fojea tomoshaliqlarda uning qahramonlari sog‘lom tabiatli, qattiq erkli kishilar bo‘lib, o‘z tanlagan yo‘llaridan shafqatsiz kurashlar bilan olg‘a boradilar. Kulgililik tomoshaliqlarda voqea qahramonlari mayda tabiatli, nodon, tarbiyasiz kishilar sifatida aqlsizlik yo‘lidan boradilar. Bunga misol sifatida olim ruslardan N.Gogolning “Revizor”, tatarlardan A.Kamolning “Birinchi teatr”, “Bo‘lak uchun” asari, Ayoz Is’hoqiyning “Jamiyat” va “Qiyomat” pyesalarini keltiradi. Odatiy tomoshaliqlar esa fojea va kulgu o‘rtasida bo‘lgan voqealarni tasvirlovchi pyesa sifatida ta’riflanib, bunday asarlar uchun mavzu va mundarijalar o‘rta turmushdagi odamlar hayotidan olinishi sababli “meshchanlar tomoshalig‘i” deb ham atalishi ta’kidlanadi.

A.Sa’diy o‘zbek tanqidchiligining janrlar tizimini boyitishga munosib hissa qo‘shgan munaqqidlardan biri sanaladi. Ayniqsa, u obzor maqola janrining shakllanishida muhim o‘rin tutdi. Olimning “O‘zbek yosh shoirlari”, “Olti yil yil Ichida o‘zbek she’riy adabiyoti” kabi maqolalari mazkur yo‘nalishdagi dastlabki tanqidiy tajribalar sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligi XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Ushbu darslikda adabiy tur va janrlar masalasi ilk bor tizimli ravishda o‘rganilib, ularning nazariy va amaliy jihatlari talqin etilgan. Olim janrlarni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki adabiy jarayon bilan bog‘liq hodisa sifatida baholaydi. A.Sa’diy darslikda yurakchilik she’rlari (lirika) va doston, g‘ariba, ertak, masal, hikoya, qissa, roman kabi epik janrlar hamda tomoshaliqlarning (dramatik tur) o‘ziga xos xususiyatlarini davr adabiyoti namunalari asosida tahlil qilgan hamda nazariy qarashlarini badiiy materiallar bilan asoslashga intilgan.

[4] Abdurahmon Sa’diy. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. (Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva) – Toshkent: Bookmany print, 2025. 152-b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmon Sa’diy. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. (Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva) – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 180 b.
2. Abdullayeva M. Mumtoz tarixiy poetika. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nshriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 368 b.
3. Hamroyeva O. Adabiyotshunoslik tarixi (O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi). – Toshkent: bookmany print, 2026. – 368 b.
4. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 432 b.
5. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 544 б.
6. Муҳаммадиева Ш. XX аср шеършунослиги (1901-1905): Филол. Фанлари номзоди... дисс. автореф. – Т.: 2000. – 21 б.
7. Норматов У. Ва бошыалар. XX аср ўзбек адабиёти. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. – 1316 б.
8. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4ғжилд. (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев) – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 78